

MATN SARLAVHASI VA UNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

O'tanova Shaxnozaxon Maxmudovna
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Matn sarlavhasi asarning mazmuni yoki mavzusi haqida ma'lumot berishi mumkin va o'quvchiga muallifning g'oyalarini tushunishda yordam beradi. U asar haqidagi ilk taassurotni yaratadi va o'quvchining diqqatini jalb qiladi.

Kalit so'zlar: Matn, semantika, leksikografiya, sarlavha, modallik, pragmatizm.

Abstract: The title of the text can provide information about the content or theme of the work and help readers understand the author's ideas. It draws the reader's attention and the first impression of the work.

Key words: Text, semantics, lexicography, title, modality, pragmatism.

Аннотация: Название текста может дать информацию о содержании или теме произведения и помочь читателю понять идеи автора. Оно создает первое впечатление о произведении и привлекает внимание читателя.

Ключевые слова: Текст, семантика, лексикография, заголовок, модальность, прагматизм.

Matn sarlavhasi va uning lingvistik, semantik-struktur tavsifi bo'yicha leksikografik manbaalarda turlicha ta'riflar berilgan. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

Ingliz tilidagi "Merriam-Webster Dictionary", "Oxford English Dictionary", "Cambridge Dictionary" lug'atlarida bu masalada shunday qaydlarni uchratish mumkin:

"The title is the name given to a literary work, which serves to identify and distinguish it from other works"¹

"The title is the descriptive name given to a book, article, or other piece of writing, indicating its content or theme"²

"The title is the name of a book, composition, or other artistic work"³

Berilgan ta'riflarning tahlilini beradigan bo'lsak, *birinchi ta'rifda* sarlavhaning ma'lum bir badiiy matnga berilgan nomi va uning boshqa matnlardan shakl jihatdan farqlovchi xususiyatlarga urg'u berilgan bo'lsa; *ikkinchi ta'rifda* sarlavha obyektining

¹ Merriam-Webster Dictionary <https://www.merriam-webster.com/dictionary/title>

² Oxford English Dictionary <https://www.oed.com/>

³ Cambridge Dictionary <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/title>

kengroq olinganligiga (kitob, maqola va boshqa har qanday turdagi yozilgan matn nomi sifatida), shuningdek uning tasvirlovchi xususiyatiga e'tibor qaratilganini kuzatish mumkin; *uchinchi ta'rifda esa*, sarlavhaning kitob, kompozitsiya va san'at asariga beriladigan nomlovchi xususiyati ta'riflangan.

Xuddi shu masala bo'yicha rus tilidagi, "Словарь Ожегова", "Словарь Даля", "Большой энциклопедический словарь" kabi leksikografik manbaalarda sarlavhaning quyidagi tavsiflari qayd etilgan:

"Заголовок — это название литературного произведения, которое служит для его идентификации и различия с другими произведениями⁴."

"Заголовок — это имя, данное литературному произведению, которое служит для его идентификации и указания на его содержание⁵."

"Заголовок — это название произведения, которое позволяет определить его основную идею⁶."

Berilgan *birinchi ta'rifda* sarlavhaning badiiy asarga berilgan nom ekanligi, bu nom uning boshqa asarlardan farqlovchi va o'ziga xos maxsus omil ekanligi qayd etilsa; *ikkinchi ta'rifda* sarlavhaning badiiy asarga berilgan nomi va u shu asar mazmuniga xizmat qilishi tavsiflanadi; *uchinchi ta'rifda esa* sarlavha asarga berilgan nom va u asarning asosiy g'oyasidan kelib chiqib tanlanishi va bu nom shu g'oyaga xizmat qilishi ta'riflanadi.

Nemis tilidagi lug'atlarda, jumladan: "Duden - Die deutsche Rechtschreibung", "Langenscheidt Dictionary", "PONS" kabi manbaalarda sarlavhaga quyidagi ta'riflar berilgan:

"Der Titel ist der Name, der einem literarischen Werk gegeben wird, um es zu identifizieren und von anderen Werken zu unterscheiden⁷."

"Der Titel ist der Name eines Buches, Artikels oder anderen literarischen Werkes, das dessen Inhalt oder Thema angibt⁸."

"Der Titel ist die Bezeichnung eines Werkes, die es ermöglicht, das Thema und den Inhalt zu erfassen⁹."

Birinchi ta'rifga ko'ra, "sarlavha" - bu badiiy asarga berilgan nom bo'lib, u asarni identifikatsiyalash va boshqa asarlardan farqlash uchun xizmat qiladi. Sarlavha,

⁴ Словарь Ожегова <http://www.ozhegov.org/>

⁵ Словарь Даля <http://www.lexicography.online/dal>

⁶ Большой энциклопедический словарь <https://www.bespalov.ru/>

⁷ Duden <https://www.duden.de/rechtschreibung/Titel>

⁸ Langenscheidt <https://www.langenscheidt.com/>

⁹ PONS <https://en.pons.com/>

asarning mazmuni yoki mavzusi haqida ma'lumot berishi mumkin va o'quvchiga muallifning g'oyalarini tushunishda yordam beradi. U asar haqidagi ilk taassurotni yaratadi va o'quvchining diqqatini jalb qiladi. Shuningdek, sarlavha badiiy asarning mohiyatini ochishga va o'quvchini asarni o'qishga undashga xizmat qiladi. Masalan, qiziqarli yoki muhokama qilinishi kerak bo'lgan bir mavzu sarlavhada aks etishi mumkin, bu esa o'quvchini ushbu asarni o'rganishga qiziqtiradi.

Ikkinchi ta'rifga ko'ra, "sarlavha" - bu kitob, maqola yoki boshqa badiiy asarga berilgan nom bo'lib, u asarning mazmuni yoki mavzusi haqida ma'lumot beradi. U asarning ichki mazmunini, asosiy g'oyasini yoki matnning boshqa muhim jihatlarini aks ettiradi. Natijada o'quvchi ushbu asarni o'qishdan oldin uning nima haqida ekanini tushunishi mumkin. Sarlavha, o'quvchini asarning mohiyatiga qiziqtirish va uning diqqatini jalb qilish uchun muhim vositadir. U ko'pincha asarning o'ziga xosligini ta'kidlaydi va muallif niyatini o'quvchi uchun ochib beradi.

Uchinchi ta'rif sarlavhaning bir asarga berilgan nomi ekanligi, u asarning mavzusi va mazmunini anglash imkonini berishi, shuningdek, sarlavha asarning o'ziga xosligini va asosiy g'oyasini ochib berishi, bu esa o'quvchiga matnni o'qishdan oldin uning nima haqida ekanligini tushunishiga yordam berishi haqidagi ma'lumotni beradi. Ko'rinadiki, sarlavha muallifning nazarida, asarda qanday muhim masalalar va fikrlar mavjudligini ko'rsatishda xizmat qiladi. Shunga ko'ra, u o'quvchining diqqatini tortadi va asarning o'ziga xosligini ochib beradi va o'quvchini mazkur matn bilan tanishishga chorlaydi. Misol uchun, agar sarlavha biror muhim ijtimoiy muammo yoki tarixiy voqeaga ishora qilsa, bu o'quvchilarning e'tiborini jalb qilishi va ularni ushbu asarni o'qishga undashi mumkin.

O'zbek tilshunosligida sarlavhaning lingvistik-semantik xususiyatlari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N. S. Gafurova¹⁰ matn sarlavhalarini tilshunoslikning turli nazariyalaridan kelib chiqib tahlil qiladi. Jumladan, muallif sarlavha matnning mazmunini aks ettiruvchi muhim komponent ekanligini, u matnning ilk tasvirini berishini va shu orqali o'quvchini matnni o'qishga tayyorlashini ta'kidlaydi. N. Gafurova sarlavhalarining nafaqat ma'no, balki hissiy va konnotativ yondashuvlar bilan qanday bog'liqligini ko'rsatadi, sarlavhalarni tahlil qilishda turli metodologiyalarni (masalan, lingvistik, stilistik, pragmatik) qo'llashni tavsiya etadi.

D. Jumaniyazova¹¹ o'z tadqiqotlarida sarlavhalarining semantik jihatlarini, ularning kommunikativ funksiyalarini va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini ko'rib

¹⁰ Gafurova N. S. *Matn tahlili: nazariy va amaliy jihatlar*. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 2015. - 176 b.

¹¹ Jumaniyazova D. *Lingvosemantik tadqiqotlar: nazariy asoslar va amaliyot*. T.: Qaraqalpaq davlat universiteti, 2020. - 140 b.

chiqadi. Sarlavhalarining matn mazmunini ochishda va o'quvchilar bilan muloqotdagi ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, olima sarlavhalarining e'tibor jalb qilishdagi roli va o'quvchilarga ta'siri muhimligini qayd etadi.

Shuningdek, sarlavha va uning asar matni bilan aloqadorligi bo'yicha T. Axmedov¹² tomonidan ham izlanishlar olib borilgan. Uning ta'kidlashicha, sarlavhalar matnning asosiy fikrini va mazmunini o'quvchiga tezda yetkazib, o'quvchilarni jalb etish, ularning qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Muallif o'z tadqiqotida matn sarlavhalarini tahlil qilishda lingvistik va pragmatik yondashuv kutilgan natijani beradi. T. Axmedov maqolada sarlavhalarining amaliy qo'llanilishi bo'yicha turli misollar keltirib, ular yordamida sarlavhalarining tahlilini qanday amalga oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, aytish mumkinki, sarlavha - bu badiiy, ilmiy yoki har qanday kitob, san'at asarining muhim elementi bo'lib, u asarning umumiy g'oyasini va maqsadini qisqacha aks ettiradi. Misol uchun, agar bir sarlavha biror muhim masala yoki voqea haqida so'zlasa, o'quvchilar ushbu asar haqida ko'proq bilishni xohlashi mumkin. Shunday qilib, sarlavha badiiy asar yoki ilmiy ishning identifikatsiyalash uchun zaruriy va mazmuniy jihatdan muhim bo'lgan asosiy elementidir.

Anglashiladiki, sarlavha tanlangan matnning asosiy sintaktik-semantik birligi sifatida matnga xos mazmuniy xususiyatlar yig'indisida namoyon bo'ladi. Sarlavhaning bir qator boshqa lingvistik xususiyatlarini yuqoridagi ta'riflardan aniqlashtirsak, mazkur ta'riflarda sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Bu sarlavhaning u yoki bu asosiy jihatlarini oydinlashtirish va mazkur jihatlariga urg'u berish bilan belgilanadi.

Xuddi shu muammo bo'yicha mavjud tadqiqotlarning tahlilini kuzatsak, ularda ham sarlavhaning turli jihatlariga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan: Z.Y. To'rayeva "tilshunoslik nuqtai nazaridan sarlavha matn nomi, semiotik jihatdan esa matnning birinchi belgisidir" deb ta'kidlaydi¹³. V.A. Kuxarenko esa, sarlavhani "asarining mohiyati aks etadigan va yakunida retrospektiv belgilari namoyon bo'ladigan matnning maxsus belgisi" deb ta'riflaydi¹⁴.

Sarlavhaning bir qator matn qonuniyatlarining (modallik, to'liqlik, izchillik, istiqbollilik, pragmatizm) voqelanishidagi muhim rolini ham ta'kidlash kerak¹⁵. Yuqorida muhokama qilingan ta'riflardan kelib chiqadiki, har bir tadqiqotchi

¹² Akhmedov T. Matn sarlavhasi: tahlil va ahamiyati. - T. , 2018 // *Til va adabiyot jurnali*, 4 (2). - 56-62 b.

¹³ Тураева З.Я. Лингвистика Текста. - М.: Просвещение, 1986. - 53 с

¹⁴ Кухаренко В.А. Интерпретация текста. - М.: Просвещение, 1988. - 92 с.

¹⁵ Кухаренко В.А. Интерпретация текста. - М.: Просвещение, 1988. - 192 с.

sarlavhani o'z tushunchasiga, muammoga o'zining ilmiy qarashidan kelib chiqqan holda talqin qiladi va uning u yoki bu xususiyatini uning faoliyatida ustunlik qiluvchi omil sifatida belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent:Ma'naviyat, 2013.–320 b.
2. Odilova G.K. Glyuttonik diskurs asoslari // Mumtoz So'z. –Toshkent, 2020.- 5-10 b.
3. Quronov D.X., Habibullayeva F.K. “O'tkan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar // Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal - Jahon adabiyoti. – 2018. – 171 b.
4. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2012. – 220 b.